

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 4

www.tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova “Qisasi Rabg’uziy” asari nusxalari va ularning matniy-qiyosiy tadqiqi	4
Saydakbarxon Valiyev “Nahju-l-farodis” asarida keltirilgan qirq hadis va ularning qiyosiy-tekstologik tahlili	20
Munavvar Olimova Huvaydoning Navoiy g’azaliga muxammasi xususida	46

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulhamid Qurbonov “Yusuf va Zulayxo”: farzandlik tuyg’ularining tasviri	60
Rübabə Şirinova “Ədəb əl-bəhs” əsəri	79
Sardor Umarov Futuvvat va badiiy ijod: tahlil va talqin	91

LINGVISTIKA

Anvarbek Turdialyev Denov tojiklari nutqida qipchoq va qarluq shevalariga xos xususiyatlar	109
Farhad Rahimi Feraği Sözlüğünün Yanlısları Üzerine II	123

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Zilola Shukurova, Muattar Ahmedova**

Manuscript Copies of "Qisas al-Rabghuzi" and
Their Textual-Comparative Study 4

Saydakbarxon Valiyev

Forty hadiths and their comparative-
textological analysis presented in the work
"Nahju-l-farodis" 20

Munavvar Olimova

On Huvaydo's Mukhammas Based on a Ghazal
by Navo'i 46

LITERATURE**Abdulhamid Qurbonov**

"Yusuf and Zulaikha": description of filial feelings 60

Rubaba Shirinova

"Adab al-bahs" work 79

Sardor Umarov

Futuwwa and Literary Creativity: Analysis and
Interpretation 91

LINGUISTICS**Anvarbek Turdialiev**

Kipchak and Karluk Dialectal Features in
the Speech of the Denov Tajiks 109

Farhad Rahimi

On the Mistakes of Feraği Dictionary 123

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE

“Yusuf va Zulayxo”: farzandlik tuyg’ularining tasviri

Abdulhamid Qurbonov⁵¹

Abstrakt

Sharq xalqlari adabiyotida Yusuf alayhissalom haqidagi qissa behad mashhur bo’lib, “Qissayi Yusuf”, “Yusuf va Zulayxo” va boshqa nomlar bilan ushbu mavzuda yuz ellikka yaqin ijodkor asar bitgan. Turkiy tilda bitilgan “Yusuf va Zulayxo”larning o’zi ham qirqdan ortiq. Maqolada Durbek nomiga nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo” dostonining kompozitsiya va mavzu o’ziga xosligi haqida so’z yuritilgan. Doston qissa talqinlari tarixida alohida o’rin tutadi. U boshqa talqinlarda uchrab turuvchi sharh, foyda, savol, javob hamda ko’pversiyalilik kabi turli uslubiy unsurlardan xolidir. Asardagi voqealar izchil rivojlanib boradi. Shuningdek, asardagi ishq mavzusining takomil topib, sof ishqiy asarga aylanishida ham muallifning alohida xizmatlari bor. “Yusuf va Zulayxo” ota va o’g’il munosabatlari ham, Zulayxoning Yusuf alayhissalomga bo’lgan ishq ham teng tasvirlangan dostonidir. Bu masalalar maqolada qissaning boshqa talqinlari bilan muqoyasada ochib berilgan.

Kalit so’zlar: *Yusuf alayhissalom, turkiy adabiyot, syujet, kompozitsiya, tahlil, talqin.*

Kirish

Yusuf va Zulayho singari G’arbda ham, Sharqda ham birday mashhur qissa bo’lmasa kerak. U asrlar davomida qayta-qayta qalamga olinib, shu asosda arab, fors-tojik, o’zbek, turk, ozarbayjon, turkman, tatar, kurd, gruzin va boshqa xalqlar adabiyotida ko’plab she’riy va nasriy asarlar yuzaga kelgani ma’lum. Mualliflari orasida Firdavsiy, Ibn Sino, Ansoriy, Ali, Rabg’uziy, Jomiy, Hoziq, Andalib kabi mashhur san’atkorlarning nomlari borki, bu hol unga bo’lgan qiziqishning ne chog’li baland bo’lganligini ko’rsatib turadi. Qissaning shuhrati bizning kunlarimizda ham so’ngan emas. Qissa hamon

⁵¹ Qurbonov Abdulhamid Abduqayumovich – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (RhD), dotsent, University of Business and Science.

E-pochta: kurbanovabdulhamid57@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-6271-1020

Iqtibos uchun: Qurbonov, A. A. 2024. “Yusuf va Zulayxo”: farzandlik tuyg’ularining tasviri”. *Oltin bitiglar* 4: 60 – 78

qalam ahlini to'qinlantirib, ularni yangi-yangi asarlar yaratishga ilhomlantirib kelmoqda.

Ushbu silsiladagi asarlardan biri "Yusuf va Zulayxo" dostonidir, u odatda Durbek nomiga nisbat beriladi. Dostonga ilk bor taniqli adabiyotshunos Y.E.Bertels e'tibor qaratgan edi. Uning o'tgan asrning 40-yillarida yozilgan "O'zbek shoiri Durbek va uning xushsurat Yusuf haqidagi dostoni" nomli maqolasi asarning yozilish tarixi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni kabi muhim masalalarga bag'ishlangan [Бертельс 1944]. Keyinchalik S.Haydarov "O'zbek dunyoviy adabiyoti taraqqiyotida Durbekning roli" nomli nomzodlik dissertatsiyasini yozib, unda "Yusuf va Zulayxo" dostonining yozilish tarixi, obrazlar tizimi, g'oyaviy mazmuni va shoirning poetik mahorati yuzasidan o'z mulohazalarini bayon etadi [Хайдаров 1962]. E.Rustamovning o'zbek va fors-tojik adabiyoti o'zaro qiyoslangan doktorlik dissertatsiyasining bir bobi ham "Yusuf va Zulayxo"ga bag'ishlangan. Muallif asos manba, dostonning mavzu o'ziga xosligi kabi masalalarga e'tibor qaratgan [Рустамов 1966]. N.Mallayev esa "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida asarning muallifi, yozilish sanasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi haqida ma'lumot beradi [Маллаев 1965, 270–286]. B.Valixo'jayev, E.Shodiyev, F.Sulaymonova, E.Fozilov, J.Lapasov tadqiqotlarida esa asosan asar muallifi haqida so'z yuritilgan [Валихўжаев 1974, 140; Шодиев <https://e-adabiyot.uz/maqola/70>; Сулаймонова 1973, 152-157; Фозилов, Лапасов 1974 (1)].

Garchi mavjud ishlarda asarning mavzu va g'oyalar olami, timsollar tizimi yuzasidan ayrim qimmatli mulohazalar bildirilgan bo'lsa-da, mavzu va g'oyalar olami ham, timsollar tizimi ham, shuningdek, asar muallifining qissa talqinidagi o'ziga xos mahorati ham chuqur tahlildan o'tkazilgan emas. Qolaversa, tadqiqotlarning aksariyati o'tgan asr, sho'rolar davriga mansubligi sabab unda bayon qilingan fikrlar ko'p jihatdan eskirib, o'z ahamiyatini yo'qotgan. Binobarin, asarni yangidan tadqiq etish, unga xolisona baho berish davr talabidir.

Asosiy qism

Doston muallifi o'z asarini yozishda mavjud manba va an'analardan fayzyob bo'lgan. Buni shoirning o'zi ham asar muqaddimasida alohida qayd qiladi. Shoirning uqtirishicha, ularning avvalgisi "Qur'oni karim" bo'lgan:

Goh o'qur erdim zi Kalomi Iloh [Durbek 1959].

Yoki:

*Jumla qisas voqeasin sarbasar
Tengri kalominda berib bu xabar.*

Bundan tashqari, shoir Yusuf va Zulayxo sarguzashtlari hikoya qilingan bir emas, bir necha kitoblarni ham o'qib chiqqan:

Goh kutub ichra qilur erdim nigoh.

Ulardan biri, aftidan, anbiyolar qissasi bo'lgan:

*Goh boqar erdim zi kitobi qisas,
Goh ichar erdim zi sharobi g'usas.*

Shoir shu o'rinda asos manbaga ham ishora qiladi: shoir "turkiy til bila nazm"ga solgan asar forsiy tildagi nasriy bir qissa edi:

Nasr edi bu qissa dag'i forsi,
Erdi anga jon ko'zi nazzorasi.

XV asrgacha yaratilgan asarlar orasida forsiy tilda yozilgan birgina nasriy qissa bor. U "Anis ul-muridin va-sh-shams ul-majolis" ("Muridlar do'sti va majlislar quyoshi") deb nomlangan bo'lib, uning muallifi mashhur shoir va adib Abdulloh Ansoriydir. Professor E.Rustamov har ikki asarni diqqat bilan qiyoslab, bu doston uchun asos bo'lgan manba haqiqatan ham "Anis ul-muridin"dir, degan xulosaga keladi. Har ikki asar syujet yo'nalishining umumiy o'xshashligidan tashqari, ularda shunday epizodlar borki, ular "Anis ul-muridin"da ham, "Yusuf va Zulayxo"da ham deyarli bir xil. Ular qatoriga, masalan, og'a-inilarning Yusuf alayhissalomning qotili sifatida sahrodan bo'ri tutib keltirishlari, Ya'qub alayhissalomning tushida Azroildan Yusuf alayhissalomning o'likmi-tirikligini so'rashi, Yusuf alayhissalomning akalarini sehrli tos yordamida so'roqqa tutishi, Bashirning Ya'qub alayhissalomdan ilgari ko'r bo'lib qolgan onasi bilan uchrashuvi va boshqalarni kiritish mumkin [Рустамов 1966, 701–723].

Biroq shoir nasriy qissaga shunchaki she'riy tus berib qo'ya qolgan emas. U "Anis ul-muridin"da mavjud bo'lgan barcha epizodlarni emas, balki o'z g'oyaviy niyatiga xizmat qiladigan o'rinlarnigina asarga kiritgan. Shunda ham ularni butunlay qayta ishlagan. Jumladan, "Anis ul-muridin"da Yusuf alayhissalom akalarini so'roq qilayotgan chog'ida bo'lib o'tgan voqealarni tos tilidan Yusuf alayhissalomning o'zi bayon qiladi. Lekin akalari Yusuf alayhissalomning so'zlariga ishonmay, uning so'zlarini yolg'onga chiqaradilar. Durbek tosning o'ziga til bag'ishlagan. Bu, albatta, voqealar rivojiga ishonarli tus bergan. O'z qilmishlarini bevosita tos

tilidan eshitgan og'a-inilar sirlari fosh bo'lib, uyatdan bosh egishga majbur bo'ladilar.

"Yusuf va Zulayxo" muallifining "Anis ul-muriddin"ga va umuman, qissa talqinlariga ijodiy munosabati doston kompozitsiyasida ham ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, "Anis ul-muridin" – so'fiyona asar. O'n to'rt bobdan iborat bo'lgan bu asarning har bir bobida sufiy shayx Yusuf alayhissalom sarguzashtlaridan ma'lum bir epizodni hikoya qilib, uning so'fiyona talqin qilishga, shu munosabat bilan so'fiyona ma'rifatga xos muhim bir masalani bayon etishiga intiladi. Masalan, "Ya'qub alayhissalom tush ko'rdi. Tushida Yusuf alayhissalom ko'priki ustida edi. O'n bo'ri uni g'ajish maqsadida qisib keldi. Ammo bo'rilarining biri uni asrab qoldi. Shu holda u ko'rdiki, yer yorilib, Yusuf alayhissalomni o'z qa'riga oldi. Shundan so'ng Ya'qub alayhissalom Yusuf alayhissalomni hargiz sahroga yubormadi, hargiz huzuridan yiroqlashtirmadi, uni kechalari yonida olib yotar va ko'z tegmasin deb duo qilar edi. Kechalari uning jamolidan ko'z uzmas, agar nogoh uxlab qolsa, Yusuf alayhissalom chehrasiga nazar solay deb darhol uyg'onar edi" [Рустамов 1966, 683].

Ansoriyning yozishicha, Ya'qub alayhissalom ham, Yusuf alayhissalom ham, ular o'rtasidagi do'stlik va muhabbat ham ramziy ma'noga ega. Ushbu epizoddan kelib chiqadigan so'fiyona g'oya shunday: kechalari Haqning yodida ko'z yummaslik va kunduzlari halovat bilmaslik kerak, ya'ni kecha-yu kunduz Haq taoloning zikri bilan mashg'ul bo'lmoq kerak.

Ko'rinadiki, "Anisul-mudirin"da voqealar bayoni ikki chiziqli bo'lib, asar badiiy to'qimasida bir-biri bilan bog'liq ikki qatlam mavjud:

- 1) Yusuf alayhissalom sarguzashtlarining tasviri;
- 2) muallifning so'fiyona mulohazalari.

Bundan tashqari, Ansoriy Yusuf alayhissalom sarguzashtlarini hikoya qilar ekan, bir o'rinda muayyan epizodning bir emas, bir necha variantlarini keltiradi. Ansoriy asari haqida E.Rustamov shunday deb yozadi: "Abdulloh Ansoriyning "Anis ul-muridin" asari aniq syujet chizig'iga ega emas. Unda Yusuf alayhissalom haqidagi qissaning turli versiyalari yordamida muallif "Qur'on"da qisqa tasvirlangan epizodlarni sharhlab boradi" [Рустамов 1966, 681].

Rivoyada ikki chiziqlik va bir epizodning turli variantlarini keltirish "Anis ul-muridin"dan tashqari, Firdavsiy, Ali, Rabg'uziy, Shayyod Hamza asarlarida ham uchraydi. Bundan tashqari, mazkur mualliflarning asarlarida bevosita arab tilida keltirilgan oyat va

hadislar ham bor.

Shunday qilib, qissa voqealarini u yoki bu tarzda sharhlab borish, ayrim epizodlarning bir emas, bir necha ko'rinishlarini keltirish hamda oyat va hadislariga murojaat etish Durbekka qadar Yusuf alayhissalom haqidagi asarlar uslubida yetakchi bo'lib kelgan edi. Bunday uslubning, albatta, o'z ijobiy va salbiy jihatlari bor. G.A.Gorbatkina shu munosabat bilan yozadiki: "Bu ham san'atkorning an'anaviy syujetni yangicha talqin qilishga, voqealar va qahramonlar xatti-harakatlarini o'ziga xos tarzda tasvirlashga, o'z qarashlarini ifodalashga, ko'hna mavzulardan foydalanib, yangi asarlar yaratishga bo'lgan intilishining yana bir isbotidir" [Горбаткина 1967, 117]. Ko'p versiyalilikka kelsak, u birorta ham tafsilotni nazardan qochirmay, syujet voqealarini to'la va mukammal gavdalandirish imkonini beradi.

Biroq shuni ham aytish kerakki, shoir shaxsiy qarashlarining asar badiiy to'qimasidan keng o'rin egallashi, buning ustiga, umumlashma mulohazalar tarzida ochiq bayon qilinishi hamma vaqt ko'ngildagidek natija beravermasligi, aksincha, asar ta'sir kuchining susayishiga sabab bo'lishi mumkin, ko'p versiyalilik, ya'ni bir o'rinda bir necha variantning keltirilishi esa syujet izchilligiga zarar yetkazishi, obrazlarni ichki mantiq va yaxlitlikdan mahrum qilib, ularning ma'naviy-ruhiy qiyofasida bir-birini inkor qiluvchi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Durbek dostoni salaflari asarlarida yetakchi bo'lgan bu kabi ikki chiziqlilikdan ham, ko'p versiyalilikdan ham butunlay xoli asardir. Unda voqealar qat'iy va izchil tarzda inkishof eta boradi. Ammo asarning o'ziga xosligi shu bilangina cheklanmaydi. Barcha nazmiy va nasriy "Yusuf va Zulayxo"larni, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, syujet va mavzu e'tibori bilan ikkiga ajratish mumkin:

1) asar markazida Yusuf alayhissalom va Ya'qub alayhissalom, ya'ni ota va o'g'il munosabatlarining tasviri turuvchi asarlar;

2) asar markazida Yusuf alayhissalom va Zulayxo, ya'ni ishqiy munosabatlar tasviri turuvchi asarlar [Валихўжаев 1974, 140; Руденко 1986, 39].

"Firdavsiy dostonidagi markaziy masala Zulayxo epizodi emas, balki ota va o'g'ilning otashin muhabbatidir, – deb yozadi Y.E.Bertels. – Dostonda Yusuf alayhissalom va Ya'qub alayhissalom munosabatlari nafis va fidokorona muhabbatning ulug'vor manzarasiga aylantirilgan. Asosiy fojia ota va o'g'ilning oz emas, ko'p emas, roppa-rosa qirq yilga cho'zilgan judoligidir" [Бертельс 1935, 61]. Y.E.Bertelsning mazkur so'zlarini Ali, Shayyod Hamza, Suli Faqih

va Rabg'uziy asarlariga ham bemalol tatbiq etish mumkin.

Ikkinchi guruhga mansub asarlarning mumtoz namunasi Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonidir. Bu xil asarlarda ota-og'il munosabatlari keyinga surilib va hatto ularning qayta topishuv voqealari tasvirdan butunlay tushib qolib, asosiy e'tibor Zulayxoning Yusuf alayhissalomga bo'lgan ehtirosli muhabbati tasvirga qaratiladi [Жомий 1974].

Bu jihatdan olganda, Durbek Zulayxo ishqini salaflariga qaraganda kengroq va batafsilroq tasvirlab, uni asarning yetakchi mavzularidan biriga aylantirdi. Asarda har ikki mavzu: ota va o'g'il mavzusi ham, ishq mavzusi ham teng tasvirlangan, deb aytish mumkin.

Yusuf alayhissalomning saodatli kunlari ham, baxtsizligi ham uning otasiga bo'lgan muhabbati va sadoqati bilan chambarchas bog'liq. Uning axloqi nechog'li yuksak, farzandlik tuyg'ilari naqadar pok va samimiy ekanligini toshbag'ir akalarining fitna va xiyonati oshkor bo'lgan dastlabki sahnadayoq ko'rish mumkin. Keksa otalarini aldab, dashtni tomosha qildirish bahonasida Yusuf alayhissalomni o'zlari bilan sahroga olib kelgan munofiq og'alar "Barcha yomonlikka qilib ittifoq", ukalarini o'ldirish qasdida "Har biri zanbur kabi urdi nish". Nogahoniy zulmdan yuragi qo'rquv va dahshat bilan to'lgan Yusuf alayhissalomning rahm-shafqat so'rab qilgan nola-yu iltijolari og'alarining tosh qotgan ko'nglini zarracha bo'lsin yumshatmaydi. Oqibat "gul tani" qonga bo'yolib, tuproq uzra murdavor yiqilgan Yusuf alayhissalom otasining so'zlarini esga oladi:

Dedi: – Eshitmadim otamning so'zin,
Ko'rmay o'larman u muborak yuzin.

Yusuf alayhissalomning otamning so'zlariga kirmadim, deb pushaymon bo'lishi, uning muborak yuzini ko'rolmay o'lib ketaman, deb afsus-nadomat chekishining o'z sabablari bor. Dostonda tasvirlanishicha, Yusuf alayhissalom Ya'qub alayhissalomning farzandlari orasida go'zallikda ham, odob-axloqda ham tengsiz bo'lib, otasining "chashmi charog'i", "nuri basari" edi. Shuning uchun ham Ya'qub alayhissalom uni "Qo'ymas edi zarra qoshidin yiroq". Yusuf alayhissalomning ham subh-u shom ota xizmatida bo'lishi, ota va og'il o'rtasidagi qaynoq mehr va muhabbat og'a-inilar qalbida hasad, adovat tuyg'ularini uyg'otadi. Ular ukalarini yo'q qilish payiga tushadilar. Yusuf alayhissalom ko'rgan tush – unga oy, quyosh hamda o'n bir yulduzning sajda qilishi og'alar qalbidagi hasad o'tini alanga oldiradi. O'g'illarining xusumatini ich-ichidan his qilgan

Ya'qub alayhissalom Yusuf alayhissalom unga tushidan xabar bergan chog'da aytgan ediki, bu tush izzat-u davlat tushidir, uni og'alaridan pinhon saqlamog'i darkor, chunki ularning Yusuf alayhissalomga hasadi beadam, bu hasaddan Yusuf alayhissalomning joniga ko'p mehnat-u alam tushishi mumkin.

Ammo Yusuf alayhissalom ota nasihatini darrov unutadi: "Yusufi Siddiq uyg'onib magar, Qildi og'alariga tushdin xabar". Bugina emas. Yusuf alayhissalom ko'rgan tush sabr kosalariga quyilgan so'nggi tomchi bo'lgan og'alar Ya'qub alayhissalomning oldiga kelib, Yusuf alayhissalomni dasht tomoshasiga olib borishga ruxsat so'raydilar. Garchi shoir ochiq aytmasa-da, ma'lum bo'ladiki, Yusuf alayhissalomning ko'nglida ham sayr mayli bor. Lekin Ya'qub alayhissalom uni ko'zidan yiroqlatishga rozi emas. Shoir otaning mehr va tashvish to'la so'zlarini bayon qilar ekan, shu o'rinda Ya'qub alayhissalomning otalik mehrini g'oyat ta'sirchan shaklda ifodalovchi va qahramonlar taqdirini tubdan o'zgartirib yuboruvchi, ularning nihoyasiz dard-u alam bilan sug'orilgan tuyg'u va kechimalari tarixida g'oyat muhim o'rin tutuvchi ikki tafsilni tilga oladi: *nuri basar, pirohan*. Ya'qub alayhissalom deydi, uning uchun barcha farzandlari ham aziz-u mukarram. Biroq Yusuf alayhissalom nuri basar yanglig', uning o'zigina emas, hatto ko'ylagi ota ko'zidan bir lahza yiroq bo'lsa, "Bo'lur ul lahza toqati toq". Shunday ekan, Yusuf alayhissalomning o'yin-kulgi deb keksa otasini g'am-tashvishga tashlab ketishi odobdan emas:

Xossa emasdur u tariqi adab,
Yusuf agar qilsa bu lavh-u tarab.

Ko'ksiga pichoq qadalgan chog'da "tariqi adab"ga xilof ish qilganligini eslab, Yusuf alayhissalomning qalbi achchiq alam va iz-tirob bilan to'lishi, mehribon padarining muborak yuzini ortiq ko'ra olmasligini o'ylab faryod chekishi shu tufaylidir.

Yusuf alayhissalomning onasi qabri ustida ko'targan faryodi qahramon farzandlik tuyg'ulari namoyon bo'lishining yana bir manzarasi. Shoir ushbu voqeani qahramon ruhiy holatining umumiy oqimi bilan bog'liq holda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Yusuf alayhissalomni Moliki tojirga sotgan og'alari aytadilarki, qullarining uch aybi bor: u o'g'ri, yolg'onchi va qochqoq. Shuning uchun uning oyoqlariga kishan, bo'yniga g'ul solish lozim. Shoir Yusuf alayhissalom og'alarining xatti-harakatlarini tasvirlar ekan, inson ruhining nozik bilimdoni sifatida ish ko'radi. Yusuf alayhissalom og'alari uchun eng katta xavf uning bandilikdan qochib ketib, yolg'onchiliklarining fosh bo'lishi, shuning uchun Moliki tojirga Yusuf alayhissalomning

qo'l-oyoqlarini badda tutishni maslahat beradilar.

Oyog'ida zanjir, bo'ynida g'ul, egnida o'g'ri kabi eski shol Yusuf alayhissalom yo'lda onasining qabriga duch kelgan chog'da o'zini qabr ustiga tashlab faryod ko'taradi:

Dedi: Ayo, mushfiq-u zebo onam,
Kuydi bu band ichida miskin tanam!
G'ul bila zanjir erur hamdamim,
Egay eding dunyada bo'lsang g'amim.
O'g'ri kabi egnimadur eski shol,
Bu ne alamdur-u, bu ne dard-u hol?!
Banda debon sotdilar oxir mani,
Bosh ko'tarib ko'rgil, onam, bandani.
Dard-u alamdur manga bas beadam,
Vahti erur, emdiki qilsang madad.

Yusuf alayhissalomning ushbu so'zlari taqdirning nogahoniy zarbasidan esankirab qolgan, bu yorug' olamda dardini so'rguvchi bir mushfiq-mehribon topmay, "onasining sovuq go'ridan yupanch, taskin qidirgan" (Bertels) g'aribi bechoraning hasrat to'la nolasidir. Qabrdan chiqqan sadoda onaning mehr va tashvish to'la ovozi quloqqa chalinadi:

Dedi: Ayo, ikki ko'zim ravshani,
Boshdin oyoq o'rtading, o'g'lim, mani.
Bu ne alam, bu ne jazodur sanga,
Bu ne sitam, bu ne jafodur sanga?!
Ayladi nolang bu yurogim firor,
Qolmadi ruhimda sabot-u qaror.

Mazkur epizod Durbek talqinida Yusuf alayhissalom fojialari va og'alarining shafqatsizligini bo'rttirib ko'rsatuvchi g'oyat ta'sirchan manzaraga aylangan. Onaning taskinbaxsh so'zlarida muhim bir nuqta bor. Yusuf alayhissalomning, uni o'ldirmoq qasdida pichoq ko'targan og'asiga aytgan so'zlari bilan onasining Yusuf alayhissalomga aytgan so'zlari bir-biriga yaqin. Yusuf alayhissalom o'z kulfatlarining sababi Tangrini unutish ekanligini ta'kidlasa, onasi o'g'liga aytadiki, "u jumla murodiga yetmog'i uchun" Tangriga sig'inishi va sabr qilishi lozim, chunki bu jafolar uning qismatida bor:

Senga chu meros erur bu alam,
Tangriga sig'in, yemagin o'zga g'am.

Zulayxoning Yusuf alayhissalomni xilvat haramga chorlash

lavhasida Yusuf alayhissalomning iymon-e'tiqodi, otasiga bo'lgan muhabbat va sadoqati yana bir bor imtihondan o'tadi. Ammo bu Zulayxoning "komi dil" topish yo'lidagi birinchi intilishi emas. Yusuf alayhissalomni Misrda uchratib, u bilan bir qancha "subh-u shom" birga bo'lgan Zulayxoning vasl ishtiyoqi behad oshgan edi. Lekin Yusuf alayhissalom uning istagini rad etadi: visolning vaqti-soati bor, "vasl ayyomi" kelguncha sabr qilmoq lozim:

Men dag'i hijron o'tidinman kabob,
Sabr qilurmanki, yomondur shitob.
Sabr-u tahammulda toparbiz visol,
Vaqti yetib o'tsa basi moh-u sol.

Yusuf alayhissalom iymon-e'tiqod va hayotiy xulosalarining ixcham ifodasi bo'lgan mazkur misralar mohiyat e'tibori bilan Yusufi Siddiqning so'zlaridir. Agar Yusuf alayhissalomning taqdiri: uning g'am-u anduh chekib "tuman izzi joh" topishi haqida avval otasi, so'ng onasi bashorat qilgan bo'lsa, endi ko'rinadiki, Yusuf alayhissalom o'z qismati, xususan, Zulayxo bilan "oqibatulamr" birga bo'lishidan xabardor. Bu safar Yusuf alayhissalomning so'zlarida ikkilanish yoki o'z ahvolidan shikoyat ohanglari sezilmaydi. Sidq, sabr uning mohiyatiga aylangan bo'lib, Yusuf alayhissalomning xulosalari qat'iy hukm, hikmat tusini olgan:

Sabr bila aylali andeshani,
Urmaling oyoqqa bu kun teshani.

Shoirning ushbu epizodni ne chog'li o'ziga xos talqin qilgani, dostonning umumiy g'oyaviy yo'nalishi hamda mazmuniga bo'ysundira olganini yaxshiroq tasavvur qilish uchun uni qissaning boshqa versiyalari bilan muqoyasa qilishga to'g'ri keladi. Yusuf alayhissalom va Zulayxoning xilvat haram yoki saroydagi uchrashuv sahnasida Yusuf alayhissalomning ma'naviy-axloqiy qiyofasini namoyish qiluvchi ikki nuqta bor:

- 1) *Yusuf alayhissalomning Zulayxoga oniy mayli;*
- 2) *bu mayldan o'zini tiyish sabablari.*

Manzaraning umumiyligiga qaramay, bu ikki holat Yusuf alayhissalom qissaning turli poetik talqinlarida bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jumladan, Rabg'uziyning "Qissai Yusufi Siddiq alahissalom"ida aytilishicha, Zulayxoning ishtiyoqi haddidan oshgach, enagasi ko'p oltin-kumush sarf qilib, go'zal bir saroy qurdiradi. Bu saroy yetti xonali bo'lib, uning devorlariga Yusuf alayhissalom va Zulayxoning turli holatlardagi suvratlari chizilgan edi. Uy bitgach, Zulayxo enagasiga amr qiladiki, Yusuf alayhissalomni saroyga

boshlab kelsin. "Qachon Yusuf alayhissalom Zulayxo o'tirgan evga kirdi ersa, Zulayxoni ko'rdi: bezanmish yinchka, yufqa to'nlar kiyib". Zulayxo visol istagida bo'ladi. Lekin Yusuf alayhissalom rad etadi. Yusuf alayhissalomning so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, buning ikki sababi bor: "biri yer, ko'k Tangrisidan qo'rqarmen, ikkinchi meni sotqun olib, muni ezgu tutgil tegandan qo'rqarman" [Rabg'uziy 1991, 121–123].

Durbek dostonida ham Yusuf alayhissalomning Zulayxoga mayl qilish sabablari Rabg'uziy qahramoniga o'xshash: *Zulayxoning go'zalligi va Yusuf alayhissalomning yigitligi*. Durbek bu sahnani ancha qisqa tasvirlaydi: Yusuf alayhissalomga atab qasr qurilishi, Zulayxo va Yusuf alayhissalom o'rtasidagi dastlabki suhbat tushirib qoldirilgan. Shoir Yusuf alayhissalomning xilvat saroyga kelishi va "yigitlik bilan g'urur topishi"ni bir necha baytda tasvirlash bilan kifoyalanadi:

Keldi, saroy ichiga qo'ydi qadam,
Ko'rdi: erur misli behishti haram.
Erdi Zulayxo o'zi chun huri in,
Mamlakati husn anga zeri nigin.
Xilvati xos erdi saroyi surur,
Topti yigitlik bila Yusuf g'urur.
Yusuf o'shal lahza Zulayxoga mayl
Qildiki, jam' o'lsa bu Mohu Suhayl.

Lekin Yusuf alayhissalom bu gunoh ishga qo'l urmaslilikgi lozim. Chunki uning o'zi Zulayxoga sabr qilishni maslahat bergan. Yusuf alayhissalom biladiki, ular faqat sabr bilangina maqsadlariga yetishlari mumkin. Lekin ikkinchi tomondan, Yusuf alayhissalom o'z e'tiqodida ne chog'li mustahkam bo'lmasin, insoniy mayl va ehtiroslar hamda bu foniy dunyoning qusur va kamchiliklari unga ham begona emas. Xilvat haramda Zulayxo bilan yolg'iz qolgan Yusuf alayhissalom ehtiroslar g'alayoni qarshisida bir lahza ojizlik qiladi. Shoir Yusuf alayhissalomning ahvolini, uning ruhidagi ziddiyatni mahorat bilan tasvirlagan. Uning holi juda tang. "Xilvati xos"da "yigitlik g'urur topib", o'rtada "shayton ishvagari" qila boshlaydi. Ana shunday qaltis holatda uning ro'parasida Ya'qub alayhissalom siymosi paydo bo'lib, uni iymon va poklikka chorlaydi:

Nogah o'shal holda boqti kamin,
Ko'rdi chu Ya'qub nabiy suvratin.
Dediki: Yusuf, xala qilma gunoh,
Nomayi a'molni qilma siyoh.

Mehribon ota so'zlari bir muddat Yusuf alayhissalom hushini joyiga keltiradi, bir lahza ko'zi ochilib, gunohkorlik hissi uning yuragiga achchiq iztirob soladi:

Yusuf o'shal lahza topib intiboh
Dediki: Faryodima yet, ey Iloh!
Yusuf o'shal nomani ko'rgach ayon,
Tutdi o'zun, qilmadi sharhi bayon.

Ammo lahza o'tmay ehtiroslar yana alangalanib, Yusuf alayhissalom jism-u jonini kuydira boshlaydi:

Lahza-i ishq o'ti yana qildi zo'r,
Shahvat ila ushbu Azozilni ko'r.
Qasdi gunoh ayladi Yusuf yana,
Shahvat o'ti birla kuya, o'rtana.

Yusuf alayhissalom murakkab ziddiyatlar girdobida qoladi. Uni goh ota qiyofasida gavdalangan iymon-e'tiqod poklik sari chorlasa, goh Zulayxo qiyofasida gavdalangan nafs o'z domiga tortishga intiladi. Shayton vasvasasi g'olib kelib, uni ikkinchi bor xiyonat sari yetaklaydi. Bu safar uning vijdoni qarshisida Aziz suvrati namoyon bo'ladi:

O'trusida bo'ldi Aziz oshkor,
Dedi: Xalo, Yusufi noe'tibor!
Men seni farzand dedim, beadab,
Sendin erur ushbu yomonlik ajab?

Gunohini anglab, qattiq xijil bo'lgan Yusuf alayhissalom (Qoldi gunohinda base munfail) bu musibatdan qutqarishni so'rab Tangriga nola qiladi:

Yusuf o'shal lahza topib intiboh,
Dediki: Faryodima yet, yo Iloh!
Barchaga lutf-u karaming dastgir,
Meni qilur shahvat-u shayton asir.
Tangri inoyat qilibon ul zamon,
Berdi anga shahvat o'tidin amon.

Shunday qilib, sadoqat va xiyonat kurashida Yusuf alayhissalom qalbidagi farzandlik tuyg'ulari g'olib keladi: xiyonat va gunohdan saqlab qoladi. Yuzaki qaraganda voqealarning rivoji bu fikrning teskarisini ko'rsatganday bo'ladi. Axir Yusuf alayhissalom ota nasihatlarini emas, Azizi Misr dashnomini eshitib gunohdan tiyildi-ku! Ammo Ya'qub alayhissalom va Azizning so'zlariga chuqur-

roq nazar tashlansa, Yusuf alayhissalomning haqiqatan ham otasiga bo'lgan mehri tufayli gunohdan saqlangani ma'lum bo'ladi. Ya'qub alayhissalom Yusuf alayhissalom qarshisida namoyon bo'lgan chog'da unga nomai a'molni siyoh qilmaslik to'g'risida so'zlaydi. Umuman olganda, bu so'zlar Yusuf alayhissalomning alamli qismati, sabr bilan saodatmand bo'lishi haqidagi avvalgi bashorat va nasihatlarining bevosita davomidir. Aziz esa to'g'ridan to'g'ri uning farzandlik tuyg'ulariga murojaat qiladi: Ajabki, farzand o'z otasiga xiyonat qilmoqda! Aziz Yusuf alayhissalomga uni o'g'lim deganini eslatish bilan kifoyalanmaydi, uni beadablikda ham ayblaydi. Yusuf alayhissalomning avval ham bir marta tarki adab qilgani va adabsizligi tufayli boshiga qanday balolar tushgani ma'lum. Shunday ekan, Yusuf alayhissalomning farzandlik burchi haqidagi so'zlar ta'sirida "intiboh topishi" – g'aflatdan uyg'onishi g'ayri shuuriy emas.

Bu fikrni "Yusuf va Zulayxo"dagi ko'plab epizodlar, jumladan, Yusuf alayhissalomning otasiga o'zi haqida xabar yo'llash voqeasi haqida ham aytish mumkin. Bu voqea qissaning deyarli barcha talqinlarida mavjud. Ammo u voqealar zanjirining qayerida kelishi va qanday tasvirlanishiga qarab turlicha g'oyaviy-badiiy qimmat kasb etadi.

Durbek Zulayxoning Yusuf alayhissalomni xilvat haramga chorlash epizodidagi singari, Yusuf alayhissalomning otasiga salom yo'llash voqeasini ham to'laligicha, butun tafsilotlari bilan olgan emas. Uning dastlabki – Yusuf alayhissalom bilan tojirning Ya'qub alayhissalom haqidagi savol-javobini tushirib qoldirgan. Buning o'rniga arabning tuyasi bilan bog'liq voqea tasvirini kiritgan. Umuman, muayyan epizodni asar g'oyaviy mazmuni bilan muvofiq tasvirlash Durbek uslubi uchun xarakterli xususiyatdir.

Murodi hosil bo'lmagan Zulayxo alam-achchiq ustida Yusuf alayhissalomni zindonband qildiradi. Birodarlarining tuhmatlaridan qutulmay, yana ham mudhishroq tuhmat va kulfatlarga yo'liqqan Yusuf alayhissalom juda nochor ahvolda qoladi. Zindonda unga faqat "mehnat hamdamu g'ussa nadim" edi, xolos. Uni, ayniqsa, otasining firoqi qattiq qiynar edi. U "hajr o'tida o'rtanib", "toqati toq bo'lguncha yig'lar", "bir nafas ham otasini yoddan chiqarmay", zora biror xabar kelib qolsa, degan umidda Kan'on yo'lga intizor tikilar edi. Nogahon sahar payti Yusuf alayhissalom oldida bir tuya paydo bo'ladi, u tilga kirib, Kan'on mamlakatiga, "Hazrati Ya'qub alayhissalom huzuriga roviy xabar" bo'lib borayotganini aytadi. Tuya ortidan yetib kelgan egasi bu holdan g'azablanib, tuyani urish uchun kaltak ko'taradi. Ammo shu chog' yer yorilib, arabning oyoqlarini

qisib qoladi. Bu holdan gungu lol bo'lgan arabga Yusuf alayhissalom deydi, bu begunoh jonivorga qilingan zulm uchun bir jazodir. Arab chin ixlos bilan tavba qilib, "Keldi-yu Yusuf qotiga qo'ydi bosh". Yusuf alayhissalom so'raydi, "Ey arabi pok din, qayga borursan?" U javob berib aytadiki, "Kan'on mamlakatiga". Kan'on so'zini eshitgach Yusuf alayhissalomning ko'ngli bo'shashib, ko'z yoshlari bahor yomg'iri kabi quyila boshlaydi:

Yusuf eshitdi esa Kan'on otin,
Boshladi ko'z yoshi qilib riqqatin.
Yig'ladi ul zor chu abri bahor,
Qolmadi jonida sabot-u qaror.

Qadrdon yurt nomini eshitib Yusuf alayhissalomning ko'zga yosh olishi va tuyg'ular tug'yonidan bir muddat gapira olmay qolishi real holat. Uning arabga qilgan iltimosi esa judolik va zindon azoblari yurak-bag'rini tilka-pora qilgan jabrdiydaning alamli iltijosidir:

Lazayi o'tdi-yu dedi: Yo arab,
Tangri panohida yuru ro'zu shab.
Xittayi Kan'onga yetishgan zamon,
Hazrati Ya'qubga borgil ravon.
Deki: Bu Kan'on elidin bir faqir,
Misrda zindonda bo'lubtur asir.
Toating erur anga go'yo chu farz,
Qullug'ini qildi bitug'ingga arz.
Topgay o'shal band-u balodin xalos,
Sizdin erur anga duo iltimos.

Yusuf alayhissalomning ushbu iltimosida ikki muhim motiv ko'zga tashlanadi: "Kan'on elidin bir faqir"ning Misrda asirligidan xabar berish va o'sha faqirning "band-u balolardan xalos" bo'lishi uchun Ya'qub alayhissalomdan duo tilashi. Ikkinchi motivga kelsak, ma'lumki, Ansoriy qahramoni zindon azoblaridan qutulish uchun Xudoga iltijo qiladi. Adib Yusuf alayhissalomning iltijosini saqlagan holda uni Parvardigordan Ya'qub alayhissalomga ko'chirgan, zindondan ozod bo'lish uchun Yusuf alayhissalom Ya'qub alayhissalomdan o'z haqqiga duo qilishni so'raydi. Bu kichik o'zgarish tufayli Yusuf alayhissalomning tuyg'u va kechinmalari uning ma'naviy-ruhiy olamidagi bosh fazilat bilan uyg'unlik hosil qilgan. Bu yerda ham sadoqatli farzandning sog'inch tuyg'ulari yangicha ohanglar bilan sado beradi. Yuqorida ko'rdikki, qahramonning qul qilib sotilishi va g'ariblik balolariga giriftor bo'lishida uning o'zi

ham juda begunoh emas. Shunday ekan, Yusuf alayhissalomning band-u balolardan ozod bo'lishi uchun ota duosi lozim emasmi? Durbek voqealar rivojiga yana bir "tuzatish" kiritgan. Ansoriy asarida Yusuf alayhissalom arabning "Kimsan" degan savoliga "Otim Yusuf alayhissalomdir", deb javob beradi-yu, ammo otasiga o'zining kimligini bildirmaydi. Arab, Ya'qub alayhissalom undan mahbusning kimligini so'raganda "otini atamakka ruxsat yo'qligini" aytadi. Yusuf alayhissalomning o'zini Ya'qub alayhissalomdan yashirishining na hayotiy, na axloqiy-ruhiy asosi bor. Aksincha, voqealar va Yusuf alayhissalom ahvolining mantiqi o'zining kimligini otasiga ma'lum qilishini taqozo qilar edi. Ya'qub alayhissalomning sevikli o'g'li firoqida chekayotgan alam-iztiroblari unga ayon. Lekin shunga qaramay, Yusuf alayhissalom o'zini tanitmaslikni ma'qul ko'radiki, bu uning tuyg'ularida ziddiyat paydo qilish bilan birga, qahramon insoniy fazilatlariga oz bo'lsa-da soya tashlaydi. Albatta, asardagi voqealarning umumiy rivoji buni taqozo qilmasligi ham mumkin. Chunki ota-bolaning qayta diydor ko'rishadigan vaqtlarigacha hali ancha vaqt bor. Lekin, nima bo'lganda ham, xarakter va voqealar izchilligini ta'minlovchi biror asos keltirish lozim edi.

Yusuf alayhissalom xarakteridagi ushbu ziddiyatni yaxshi his qilgan adib uning xatti-harakatlarini sirliklik pardasiga o'ramay, ularni real holat va voqealarning ichki mantiqi bilan bog'lab tasvirlashga harakat qiladi. Aftidan, Yusuf alayhissalom bilan arab o'rtasidagi Ya'qub alayhissalom ahvoliga doir suhbatning tushib qolishi ham shu bilan izohlanadi. Arab Kan'on mamlakatiga yetib kelgach, Ya'qub alayhissalom undan "zindondagi ul faqirning" ismini va nima sababdan o'zga ellarda asir tushib, zindonband etilishining sabablarini bayon etishni so'ragan chog'ida Durbek dostonida ham arab mahbusning kimligini aytib bera olmaydi. Lekin bu holning o'z "uzrli" sababi bor:

Dedi arab: Manga demodi otin,
Behud edim, ko'rgach aning suvratin.

Demak, Yusuf alayhissalom arabga ismini aytmagan, aytgan bo'lsa ham, u Yusuf alayhissalom jamolini ko'rgach, behud bo'lib qolgan, binobarin, uning kimligini bilmagan. Bundan ko'ra ham ishonarli asos bo'lmasa kerak. Chunki dostonida biror inson zoti yo'qki, u Yusuf alayhissalom go'zalligidan hayratga tushmasin, behud bo'lib, hushini yo'qotmasin.

Arabning Yusuf alayhissalomdan xabar keltirishi bilan bog'liq epizodning dostonidagi vazifasi keng: u sarguzashtlar silsilasidagi noaniqlik, mavhumlikni yo'q qilishdan tashqari, badiiy

adabiyotda keng tarqalgan va hozirgi zamon adabiyotshunosligida sir saqlash deb ataluvchi kuchli badiiy vositaga aylangan. Arab garchi behudlik tufayli Misr zindonidan salom yo'llagan kan'onlik yigitning kimligini aytib bera olmagan bo'lsa ham, u keltirgan xabar "firoq ilkida zabun bo'lib", "kulbayi ahzonni" vatan tutgan otaning qalbida chaqnagan umid uchquni bo'ladi. Ya'qub alayhissalom ich-ichidan his qiladiki, o'g'li tirik, salom yo'llagan ham u. Lekin, ayni chog'da, Yusuf alayhissalomning tirikligi va yo'llagan salomining ham undan ekanligiga ishonchi komil emas. Ya'qub alayhissalom Tangridan "ul yigiti ojiz-u diltasta"ni "zindon mehnatlari"dan xalos aylashni so'rab duo qiladi.

Nomayi a'molni siyoh qilmaslik, g'am-u kulfatlarga sabr va ayniqsa, kekxa otaning "muborak nafasi" bekor ketmaydi. Ruhul amin keltirgan "muhrayi zarrin" mo'jizasi bilan Yusuf alayhissalom ilmi hikmat, ilmi ta'bir va ilmi laduniydan xabardor bo'ladi. Bu ilmlarning fayzidan uning botinida "nur dengizi" mavj ura boshlaydi, o'tmish va kelajakdan xabar beruvchi komil insonga aylanadi. Ruhul amin Yusuf alayhissalomga shunday deydi:

Bo'ldi ato senga sabab ushbu ilm,
Bilgil, ayo koni karam, bahri hilm.

Biroq "ayomi g'am" butkul tugab, "davlat-u iqbol unga yuz o'giradigan" damlar kelguncha Yusuf alayhissalom yana oz emas, ko'p emas, raso olti yil zindonda yotmog'i, zindon azoblariga sabr qilmog'i lozim. Zindon va sog'inch alamlaridan qalbi butunlay vayron bo'lib, behush tuproqqa yiqilgan Yusuf alayhissalomga Ruhul amin tasalli berib shunday deydi: Yo Rasul

Sabr qil-u ayla nasihat qabul.
Sokini zindon erursan yaqin,
Bilki, yana olti yil, ey pok din.
Olti yil o'tsa o'tar ayyomi g'am,
Ushbu erur senga navishti qalam.
Senga qo'yar davlat-u iqbol yuz,
Tangri berur jumla murodingni tuz.

Haqiqatan ham, unga davlat-u iqbol yuz qo'yadi: zindon bandlari yechilib, Yusuf alayhissalom Misr elining shahriyoriga aylanadi, Zulayxoga uylanib, o'g'illi-qizli bo'ladi. Biroq u erishgan martaba qanchalik ulug' bo'lmasin, uning uchun haqiqiy davlat-u iqbol mehribon padarining muborak chehrasi. Yusuf alayhissalomning otasi bilan uchrashuv voqeasi dostonda qahramon kayfiyati va kechinmalarining mantiqiy yakuniga aylangan.

"Qissasi Rabg'uziyda" hikoya qilinishicha, Yusuf alayhissalom otasining Misrga kelayotganidan xabar topgach, dabdaba bilan yo'lga tushadi: "Nog'ora, nafir birla otasiga o'tru chiqdi. Bir qizil alami bor erdi qizil oltundin, yinju, yoqut birla murassa' qilingan, kavokiblar o'rnatmish. Ul alamni ko'tarsalar, yel ani tebratsa, ko'k ko'krar edi. Xaloyiq ani eshitib behush bo'lur erdi". Yusuf alayhissalom butun Misr eliga jar soladiki, kimki uni desa, otasini kutib olish uchun u bilan birga yo'lga otlansin.

Lekin otasiga bo'lgan hurmat va ehtiromini ne chog'li as'asa va dabdaba bilan namoyish etishga oshiqmasin, Rabg'uziy Yusuf alayhissalomida farzandlik tuyg'ularidan ko'ra shohlik odobiga rioya qilish kuchlilik qiladi. Rayon malik, aftidan, Yusuf alayhissalomning endi hukmdor, otasining esa oddiy kishi ekanligini ko'zda tutib bo'lsa kerak, Yusuf alayhissalomga otang bilan ko'rishgan chog'da otdan tushma, deb tayinlaydi. Shuning uchun ham otasi huzuriga otlangan Yusuf alayhissalom "ikki ko'ngullik edi. Agar otdan tushsam, Rayon malik so'zi sinmish bo'lgay. Agar tushmasam, otam ko'ngli ozor qilmish bo'lgay deb". Oxir oqibat otdan tushmaslikni ma'qul ko'radi. Chunki shunday qilsa, "Malik... kechurmagay" [Рабғузий 1991, 161].

Foniy dunyoning hoyu havaslaridan doimo iymon-e'tiqodni ustun qo'ygan Yusuf alayhissalomning Rayon malikning ko'ngliga boqib, bunday "ikki ko'ngullik" bo'lishi uning payg'ambarlik sifatlariga ham, insoniylik fazilatlariga ham soya tashlashi aniq. Yusuf alayhissalom xarakteridagi ushbu ziddiyatni his qilgan uning "beodobligi"ni oqlash maqsadida otdan tushmaslikning boshqa sababini ham keltiradi: Yusuf alayhissalom otasini tanimagan edi. Biroq qanday sabablar bilan izohlanmasin, uning bu qiligi sevimli o'g'li firoqida yig'layverib ko'zlari ko'r bo'lgan, olis Kan'ondan Misrga mashaqqat tortib kelgan otaga nisbatan behurmatlik. Yusuf alayhissalomning bu ishi Xudoga ham xush kelgan emas. Unga shu chog' shunday vahiy keladi: "Ey Yusuf, otangga behurmatlik qilgan uchun badaning go'rda sasir, o'zga payg'ambarlarning jasadi go'rda sasimas" [Rabg'uziy 1329, 253].

"Yusuf va Zulayxo" dostonining qahramoni uchun "ikki ko'ngullilik" ham, "faromushxotirlik" ham mutloqo begona. Durbek asarida ham Yusuf alayhissalomning otasini kutib olishi bilan bog'liq bo'lgan barcha tafsilotlarni uchratish mumkin: ko's, naqora, alami zarnigor, mulozimi sad hazor. Lekin shoir qalamining kuchi bilan ushbu tafsillar Yusuf alayhissalomning shon-shavkati emas, balki qahramon tuyg'ularining pokligini tasvirlash vositasiga

aylangan. Otasining muborak chehrasi u yoqda tursin, Kan'on tarafdin ko'tarilgan gardu g'uborga ko'zi tushishi bilanoq Yusuf alayhissalomning jismu jonida sabru qaror qolmaydi:

*Yusufi Siddiq bu gard-u g'ubor
Ko'rdi, anga qolmadi sabr-u qaror.
Dedi: Qilay ko'zima ko'hli basar,
Yo qilayin faxr uchun toji sar.
Gardu g'uboringni sening bu zamon,
Shukr qilib Tangriga jon-u jahon.*

Yusuf alayhissalomning bu so'zlarida hech qanday mubolag'a yoki soxtakorlik yo'q. Ota va o'g'ilning uchrashuv sahnasi "otashin va fidokorona muhabbat"ning hayajonli manzarasi, mantiqiy yakunidir:

Yusufi Siddiq ko'rib havli jon,
Tashladi otdin o'zini ul zamon.
Bir birina yetdi-yu quchishdilar,
Behud o'lib yer yuzina tushtilar.

Xulosa

"Qur'oni karim"da keltirilgan Yusuf alayhissalom qissasi payg'ambarlardan birining ibratli sarguzashtlaridan sof ishqiy doston darajasiga ko'tarilguncha uzoq rivojlanish jarayonini boshidan kechirdi. Bu jarayonda shoir Durbekning ham alohida o'rni bo'lib, uning asar mazmuni va kompozitsiyasini takomillashtirish sohasidagi xizmatlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Adabiyotlar

- Бертельс, Е. Э. 1935. *Абул-Касим Фирдоуси и его творчество*. Л.М. Издательство АН.
- Бертельс, Е. Э. 1944. *Узбекский поэт Дурбек и его поэма о Иосифе Прекрасном*. Дар. Альманах. Ташкент.
- Валихўжаев, Б. 1974. *Ўзбек эпик поэзияси тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Гвахария, А. А. 1968. *Персидские источники грузинских версий "Юсуфа и Зулейхи"*. АРКД, Тбилиси.
- Горбаткина, Г. А. 1967. *Пьесы-легенды Назыма Хикмета*. Москва: Наука ГРВЛ.
- Дурбек. 1959. *Юсуф ва Зулайхо*. Тошкент: Фанлар Академияси нашриёти.
- Жомий, Абдурахмон. 1974. *Юсуф ва Зулайхо*. Огаҳий таржимаси. Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. 3-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- История узбекской литературы*. 1991. В 2-х томах. Том I. Ташкент:

Фан.

- Кароматов, Ҳ. 1993. *Ўзбек адабиётида "Қуръон" мавзулари (адабий-тарихий таҳлил)*. Фил. фан. док. дисс... автореферати. Тошкент.
- Короглы, Х.Г. 1985. "Сюжет о Юсуфе и Зулайхе в тюркских литературах". Советское востоковедение, 6.
- Маллаев, Н. 1965. *Ўзбек адабиёти тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Рабғузий. 1990. *Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб*. Тошкент: Ёзувчи.
- Руденко Н. 1986. *Литературная и фольклорные версии курдской поэмы "Юсуф и Зелиха"*. М. Наука, ГРВЛ.
- Рустамов, Э. 1966. *Некоторые вопросы сравнительного изучения узбекской литературы с другими восточными литературами (тюркские и персидско-таджикские)*. Москва-Ташкент.
- Сулаймонова, Ф. 1973. "Юсуф ва Зулайхо" достонининг Алишер Навоийга нисбат берилган Париж қўлёзмаси ҳақида". Адабий мерос.
- Хисамов, Н. 1979. *Поэма "Қиссаи Юсуф"* Кул Али. Москва: Наука.
- Фозилов, Э. Лапасов, Ж. 1974. "Юсуф ва Зулайхо" достони ҳақида". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1.
- Шодиев, Э. Юсуф ва Зулайхони ким ёзган? <https://e-adabiyot.uz/maqola/70>.
- Рабғузий. 1329. *Қисас ул-анбиёи Рабғузий*. Тошкент.
- Ҳайдаров, С. 1962. *Ўзбек дунёвий адабиёти тараққиётида Дурбекнинг роли*. НД, Тошкент.

"Yusuf and Zulaikha": description of filial feelings

Abdulhamid Qurbonov ¹¹

Abstract

The story of Yusuf, peace be upon him, is very well known in the literature of the peoples of the East; about one hundred and fifty works have been written on this topic under the titles "Kyssai Yusuf", "Yusuf and Zulaikha" and others. More than forty "Yusuf and Zulaiho" are written in Turkic languages. This dastan occupies a special place in the history of interpretation of the plot. It does not contain the various stylistic elements found in other interpretations, such as comments, favor, question, answer, and multiple options. Events in the work develop sequentially. Also, the

¹ Abdulhamid A. Qurbonov – PhD, dotsent, University of Business and Science.

E-mail: kurbanovabdulhamid57@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-6271-1020

For citation: Qurbonov, A. 2024. "Yusuf va Zulaikha": description of filial feelings" *Golden scripts* 4: 60 – 78.

author can be considered a special merit for improving the theme of love and turning the plot into a purely romantic work. In the dastan, the themes "Yusuf and Zulaikha", the relationship between father and son and Zulaikha's love for Yusuf, peace be upon him, are equally hidden. These questions are revealed in the article in comparison with other interpretations of the story.

Key words: *Yusuf aleihissalam, Durbek, Turkic literature, plot, composition, analysis, interpretation.*

References

- Bertels, Y. E. 1935. *Abul-Kasim Firdousi i yego tvorchestvo*. L.M. Izdatelstvo AN.
- Bertels, Y. E. 1944. *Uzbekskiy poet Durbek i yego poema o Iosife Prekrasnom*. Dar. Almanax. Tashkent.
- Valixojayev, B. 1974. *O'zbek epik poeziyasi tarixidan*. Toshkent: Fan.
- Gvaxariya, A. A. 1968. *Persidskie istochniki gruzinskix versiy "Yusufa i Zuleysi"*. ARKD, Tbilisi.
- Gorbatkina, G. A. 1967. *Pesi-legendi Nazima Xikmeta*. Moskva: Nauka GRVL.
- Durbek. 1959. *Yusuf va Zulayxo*. Toshkent: Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
- Jomiy, Abdurahmon. 1974. *Yusuf va Zulayxo*. Ogahiy tarjimasi. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 3-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Istoriya uzbekskoy literatury*. 1991. V 2-x tomax. Tom I. Tashkent: Fan.
- Karomatov, H. 1993. *O'zbek adabiyotida "Qur'on" mavzulari (adabiy-tarixiy tahlil)*. Fil. fan. dok. diss... avtoreferati. Toshkent.
- Korogly, X. G. 1985. "Syujet o Yusufe i Zulayxe v tyurkskix literaturax". *Sovetskoe vostokovedenie*, 6.
- Mallaev, N. 1965. *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Rabg'uziy. 1990. *Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob*. Toshkent: Yozuvchi.
- Rudenko N. 1986. *Literaturnaya i folklornie versii kurdskey poemy "Yusuf i Zelixa"*. M. Nauka, GRVL.
- Rustamov, E. 1966. *Nekotorie voprosy sravnitel'nogo izucheniya uzbekskoy literatury s drugimi vostochnimi literaturami (tyurkskie i persidsko-tadjikskie)*. Moskva-Tashkent.
- Sulaymonova, F. 1973. "Yusuf va Zulayxo" dostonining Alisher Navoiyga nisbat berilgan Parij qo'lyozmasi haqida". *Adabiy meros*.
- Xisamov, N. 1979. *Poema "Kysai Yusuf" Kul Ali*. Moskva: Nauka.
- Fozilov, E. Lapasov, J. 1974. "Yusuf va Zulayxo" dostoni haqida". *O'zbek tili va adabiyoti* 1.
- Shodiev, E. *Yusuf va Zulayxoni kim yozgan?* <https://e-adabiyot.uz/maqola/70>.
- Rabg'uziy. 1329. *Qisas ul-anbiyoyi Rabg'uziy*. Toshkent.
- Haydarov, S. 1962. *O'zbek dunyoviy adabiyoti taraqqiyotida Durbekning roli*. ND, Toshkent.